

## AXSIKENT YODGORLIGI – “FARG’ONA - AFROSIYOB” ARXEOLOGIK IZLANISHLARI VA TADQIQOTCHILARNI FAOLIYATLARIDA....

Axunova Muborak

Namangan Davlat Universiteti Tarix fakulteti 70220401

Arxeologiya mutaxasisligi magistaranti

Telefon: +998975151373

**Anontatsiya:** Maqolada Namangan viloyati arxeologik tadqiqotchilar izlanishlari, Axsikent yodgorligini o’rgangan arxeolog va tadqiqotchilar, YUNESKO va mustaqillik yillaridagi olib borilgan amaliy tiklash faoliyatları haqida ma’lumotlar manbalar asosida yoritib berildi. Ushbu manbadan ijtimoiy fan tadqiqotchilar bilan bir qatorda, erkin qiziquvchilar uchun ham tushunarli, ilmiy asoslar keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** Axsikent va Axsi, N.I.Veselovskip, I.A.Kastane, Ya.G’.G’ulomov, I.Ahrorov, Abdulhamid Anorboyev, “Ochiq osmon ostidagi muzey”, “Butun jahon madaniy mero sob’ekti”.

Namangan viloyati hududi arxeologik obidalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa To’raqo’rg’on tumanida – Axsikent va Axsi, Pop tumanida, Chust tumanida Buonomozor, Kosonsoy tumanida Mug’tepa, Uchqo’rg’on va Norin tumanlarida Kayvonot va Eyloton, Chortoq tumanida qadimiy irrigatsiya qurilmalari va korizlar muhim arxeologik yodgorlik sifatida katta ilmiy qimmatga ega bo’lib, uzoq o’tmishdan xabar berib turadi.

Namangan viloyatining tarixiy yodgorliklarini ilmiy asosda o’rganish Turkiston Rossiysi bosib olgandan so’ng, XIX asr 80-yillari o’rtalaridan boshlangan. Viloyatda dastlabki arxeologik tadqiqotlar Sirdaryoning o’ng sohilida olib borilgan.

Axsikent yodgorligi – qadimiy shahar xarobasi. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Shahand qishlog’i hududida Sirdaryoning o’ng sohilida joylashgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Axsikent shahri miloddan avvalgi III-II asrlarda vujudga kelgan, IX-X asrlarda Farg’ona vodiysining poytaxti bo’lgan. 1219-yil mo’g’illar tomonidan butunlay vayron qilingan. Asrning eski o’rnidan 5-7 kilometr g’arbda bunyod etilgan yangi shahar Axsi XIV-XVII asrlarga oiddir.

Axsikatni arxeologik jihatdan o’rganish ishlari XIX asr oxirlari XX asr boshlarida boshlangan. 1885-yil N.I.Veselovskip, 1914 yil I.A.Kastane qazish va qidiruv ishlari olib borgan va dastlabki ilmiy o’rganishga asos solingan.

Axsikat xarobalaridan g’arbroqda o’rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi aniqlandi. Akademik Ya.G’.G’ulomov va arxeolog I.Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikkita shahar bo’lganligini, ulardan biri qadimgi Axsikat va ikkinchisi Bobur tug’ilgan Axsi ekanligini birinchi bo’lib

isbotladilar. Nafaqat Namangan viloyatida, balki respublikada mashhur bo'lgan, xaqli ravishda "Farg'ona Afrosiyobi" nomini olgan, 25 gektardan ortiqroq maydonni egalagan.

Axsikent arxeologik hududida arxeologlar I.Ahrorov, A.Anorboyev va NamDU dotsenti I.Qosimov tomonidan 70-yillardan boshlab olib borilgan qazilmalar natijasida muhim ilmiy qimmatga ega bo'lganma'lumotlar qo'lga kiritildi. Ana shu tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Axsikent yodgorligi uch tomondan baland minorali devorlar bilan o'rالgan bo'lib, janubiy tomonidan Sirdaryo kesib o'tadi va uncha baland bo'lмаган devorlari saqlanib qolgan. Shahristonning sharqiy qismida o'nta minora bo'lib, ular bir-biridan 20-30 metr uzoqlikda joylashgan. Shimoliy tomonida 2 ta va g'arbiy qismida esa 3 ta minora saqlanib qolgan, xalos. Sharqiy tomondagи minoralardan ikkitasi qazib ko'rolganda ular faqat xom g'isht bilan urib chiqilgani ma'lum bo'lди.

Shahristonning o'rta va ichki qismlari mutlaqo buzib yuborilgan. Shunga qaramasdan topografik jihatdan aholi yashagan kvartallar, binolar, hovuzlar, ko'chalar va darvozalarga boradigan yo'llar aniqlandi. Manbalarda aytilganinidek shahar o'zining to'rtta darvozasiga ega bo'lib, ulardan ikkitasi g'arbiy tomonda, bittasi shimoliy va yana bittasi shahristonning sharqiy qismidir.

Shahriston asosiy shahar arkining shimol, shimoli-sharqiy tomonida, to'rburchak shaklda joylashgan bo'lib, tahminan o'ttiz gektardan ortiqroq maydonni egallaydi. Uning janubiy qismini esa daryo yuvib ketgan.

Mustahkamlangan mudofaa devorlari, xom g'ishtdan qurilgan 4-5-6 xonali uylar, shuvo, turli bo'yoqlar surtilgan, uylardagi supalar, o'choqlar va quduqlar, omborxona va oshxonalar topildi. IX-XIII asrlardagi shahristonda obod ko'chalar, xovuzlar, bozor bilan tutashib ketgan zargarlik, misgarlik, temirchilik, baqqollik va umuman savdogarlar mahallalari joylashgan qatlamlar o'rganildi. Shuningdek ichki shahriston qismidagi so'nggi qazishmalar vaqtida ilgari topilgan vodoprovod qoldiqlarining yangi izlari va gumbaz shaklida qurilgan ajoyib suv inshoootlarining qoldiqlari topildi. Kishini hayratga soladigan yuvindi va chiqindilarni tashlaydigan o'ralar, o'choqlar bor. Axsikentliklarning o'tkir qilichlari va xo'jalik uchun zarur bo'lgan buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalari ham ochildi. Axsikentda ko'plab sopol parchalari uchraydi. Bularning hammasi o'rta asrlardagi Axsikent shahristonining eng obod va gavjum joy bo'lganligidan darak beradi.

Bugun O'zbekistonda barchaning diqqat markazida turgan Axsikent yodgorligining xalqaro miqyosda "Butun jahon madaniy mero sob'ekti" po'yxatiga kiritish masalasida 2018-2019-yillarda Qozog'iston Respublikasi Almati shahrida o'tkazilgan YUNESKO xalqaro konfrensiyalarda ko'plab nufuzli mutaxasislar tomonidan ijobjiy ilmiy xulosalar berilgan edi. Ushbu yodgorlikda qariyb qirq yildan beri ilmiy tadqiqotlarni olib borayotgan tarix fanlar doktori, professor Abdulhamid

Anorboyev Axsikent shahar xarobasini tarixini moddiy va yozma manbalar orqali o’rganish natijasida qimmatli ilmiy ma’lumotlarni qo’lga kiritishga muvaffaq bo’ldi. Ayni paytda yodgorlikning muhofazasi va turistlar uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish masalasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2018-yilning 8-dekabrida Yunesko tomonidan tayinlangan maxsus ekspert guruhi Axsikent yodgorligi va uning atrofida olib borilayotgan amaliy ishlar bilan yaqindan tanishish niyati va maqsadida tashrif buyurdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan Axsikent yodgorligining bitta ob’ektida(VIII) 2018-yil “Ochiq osmon ostidagi muzey” tashkil etildi. Natijada, ushbu joyda X-XIII asrning boshlariga oid turar joy, ishlab chiqarish bilan bog’liq ob’ekt yer osti suv yo’li – vodoprovod va 1,5 ming yillik madaniy qatlamlar namoyish etilmoqda. Respublika Prezidenti 2019 yilning 28 fevral kuni Axsikent yodgorligida bo’lib, qilingan ishlar bilan tanishdi va yangi ko’rsatmalar berdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Anorboyev Abdulhamid “Yangi Axsi tilsimlari”
2. [https://ru.m.wikipedia.org>wiki](https://ru.m.wikipedia.org/wiki)